



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Kiyamova Saodat

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIGA MAQOLLAR AKS ETGAN AUDIOMATNLARNI O'RGATISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda maqollarning o'rni haqida mulohaza yuritilgan. Boshlang'ich sinflarning “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklaridagi maqollarni o‘rgatish usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, avdiomatn, rivoyat, hunar, ta’lim, ma’rifat.

Yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o'zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an'ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari bo'lgan maqollar alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarning “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida maqollar alohida mavzu sifatida berilmagan bo‘lsa-da, “ertak”, “rivoyat” kabi matnlarning mazmunidan kelib chiqib, uning tarkibiga kiritilgan. Masalan, 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida “Hunarning foydasi” [1] rivoyati keltirilgan. Dars



jarayonida o'quvchilarga dastlab, ushbu rivoyatning avdiomatni eshittiriladi. O'quvchilar tinglash orqali maqollar va ularning mazmuni bilan tanishishgach, o'qituvchi rivoyatning mazmunini qayta hikoya qilib berishi jarayonida bolalarga maqollar haqida qisqacha nazariy ma'lumot berib o'tishi maqsadga muvofiqdir. **Maqol** – mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar; sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollar ta'lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. U kishilarni ogohlantiradi (*"Birovga kulma zinhor, senga ham kulguvchilar bor"*), maslahat beradi (*"Yo'l bilmasang yo'l so'ragin yurgandan, gap bilmasang gap so'ragin bilgandan"*), tanbeh berib, tanqid qiladi (*"Cholni ko'rib buvam dema"*), mehnatni ulug'laydi (*"Ishlaganning og'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar"*), hajviy kulgi ostiga olib, fosh etadi (*"Ishtonsiz tizzasiz yirtiqqa kular"*) va boshqalar. [2]

Xalqimiz donishmandligining yetuk namunasi bo'lgan maqollarni boshlang'ich ta'limda o'rgatish uchun qadimdan amalda qo'llanilib kelingan o'qitish usullaridan bo'lgan adabiy ta'lim metodidan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunki ajdodlarimiz asarlarining matni, unda ishlatilgan so'z va iboralarni yosh bolalarga sharhlab, og'zaki bayon qilish asosida tushintirish lozim. Buning uchun esa, o'qituvchining ayrim adabiyotshunoslikka oid bo'lgan ilmlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. Ana shunday ilmlardan ayrimlari quyidagilardan iboratdir: matnni ifodali o'qish, ilmi bayon, ilmi sharh. Bu tushunchalar haqida nazariy ma'lumot berishda ayrim murakkab matnlarni yod olinishining talab etilishi o'quvchi sevib o'qiydigan matn mazmunini chuqur o'zlashtirish imkoniyatini berishi shubhasizdir.

Qadimdan maktablarda keng qo'llangan usullardan biri ilmi sharhdir. Bu usul asosan izohtalab so'zlarning bayonini berish uchun xizmat qilgan bo'lsa-da, juda keng ma'noni ifodalagan. "Sharh" arabcha so'z bo'lib, lug'atlarda uning 14 xil ma'nosi keltiriladi. Har bir asarning asl ma'nosini anglash uchun, uni sharhlash kerak.

So'z san'atining, ayniqsa, badiiy so'zning qudrati beqiyosdir. Inson nutqiga fayz berib turuvchi so'z badiiy adabiyotda yanada ta'sirchan tusda namoyon bo'ladi. Ana



shu soʻz boyligini tushunib yetish, uning goʻzalligini his qilish har bir oʻquvchiga oʻzgacha zavq bagʻishlaydi.

Badiiy soʻz sanʼati, shu jumladan, sharhlab oʻqish sanʼati qadim maktab va madrasalar oʻquv dasturlaridan tortib to hozirgi unga qadar davom etib kelmoqda. “Sharh” - asli arabcha soʻz boʻlib, ochish, bayon qilish, oshkor qilish, cheksiz kabi maʼnolarni bildiradi.[3] Sharhlash usuli maktablarda bolalar savodini chiqarish, ularda ravon oʻqiy olish koʻnikmasini shakllantirish, turli mavzulardagi murakkab matnlar mazmunini tushunish, ularning maʼnaviy olamini boyitishga qaratilgan. Aslida, sharh tom maʼnodagi adabiy tanqid yoki tadqiqot boʻlmay, balki matnni oʻrganish usulidir. Shunday boʻlgach tahlilchining ilmiy dunyoqarashi, soʻz boyligi muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Qunt bilan oʻrgan hunar,

Hunardan rizqing unar.

Maqol mazmunini oʻquvchilarga tushuntirish uchun undagi baʼzi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini sharhlash lozim. Hunar – sanʼat, bilim, koʻnikma, mahorat, ustalik; kasb [4], yaʼni biror ishdagi mahorat, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakatdir. Qunt – Biror ishni astoyidil berilib, sabr-toqat bilan bajarish ishtiyoqi. Rizq – yashash vositasi, taʼminot, ulush, nasiba boʻlib, insonlar va butun tirik mavjudotlarning kundalik hayoti uchun zarur ozuqa sanaladi. Unar – unmoq, yuzaga kelmoq, hosil boʻlmoq, yetishmoq. Agar har bir odam qobiliyat va qiziqishlariga qarab biror bir hunarni egallasa, shu orqali avvalo oʻzini-oʻzi boqadi, hech kimga moddiy jihatdan qaram boʻlib qolmaydi. Hunari orqali boshqa insonlarning ham maʼlum manfaatlarini qondiradi, shu orqali el orasida hurmat-eʼtibor qozonadi hamda Vatanining rivojlanishiga ozmi-koʻpmi hissa qoʻshadi. Avdiomatndagi rivoyatda, shahzoda oʻz hunari orqasidan hattoki oʻlimdan ham qutilib qoldi. Demak, har bir odam uchun hunarli boʻlish zarur ekan. Biroq hunarni oʻrganish oson emas, buning uchun erinmasdan harakat qilish talab etilar ekan. Quyidagi maqolda hunar oʻrganishning talab va shartlari haqida fikr yuritiladi.

Tikansiz gul boʻlmas,

Mashaqqatsiz – hunar.



Maqolning asosiy magʻzi shundaki, hunar oʻrganishda uchraydigan har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, sabr bilan harakat qilish kerak. Masalan, avdiomatnda berilgan rivoyatdagi gilamdoʻzlik, yaʼni toʻquvchilik hunarini olaylik. Gilam toʻqish uchun ishlatiladigan bigizning uchi ozgina ehtiyotsizlik tufayli oʻrganuvchining qoʻlini shikastlab qoʻydi. Shunda bu hunarni oʻrganish qiyin ekan deb birdaniga vos kechib ketmasdan, yana ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoq lozim. Maqolda ana shu kabi holatlar boshqa hunarlarni oʻrganishda ham uchrashi mumkinligi uqtirilgan. Maqolning birinchi qatorida ushbu mashaqqatli jarayonlar goʻzallik namunasi boʻlgan gulga qiyosalanadi. Oʻta nafis, chiroyli gulning ham tikani boʻlib, hattoki uni uzib olishda qoʻlga kirib ketishi azobiga chidash kerakligi masalasi oddiygina oʻxshatish orqali ifodalangan.

Baʼzi odamlar hech qanday mehnat qilmasdan, osongina boyib ketishni istashadi. Shu maqsadiga yetishish uchun turli xil nojoʻya masalan, aldamchilik, qalloblik, oʻgʻrilik yoʻllariga kirib ketadi, oqibatda esa boshqalarga ham oʻziga ham zarar berishadi. Quyidagi maqolda, bolalarni ana shunday holatga tushib qolmasliklari uchun albatta, biron bir hunarini egallashlari lozimligi haqida fikr yuritilgan:

Tekin boylik axtarguncha,

Oʻzingga bop hunar top.

Agar insonning oʻziga ishonchi, qobiliyati bor boʻlsa, u bitta emas, balki koʻproq hunar egallashga harakat qilishi lozim. Chunki egallagan har bir hunari vaqti kelib, oʻziga va boshqalarga ham yordam beradi. Avdiomatndagi shaxzoda gilamdoʻzlikdan tashqari naqshinkorlikni ham puxta oʻzlashtirganligi sabab, oʻzi toʻqigan gilamga qaroqchilar manzili xaritasini mahorat bilan joylashtiradi. Otasi ushbu naqshlar asosida qaroqchilar manzilini topib boradi va shahzodani ularning qoʻlidan qutqaradi. Demak, ota-bobolarimizdan qolgan “Bir yigitga qirq hunar oz” degan maqol, bejizga aytilmagan ekan.

Dars soʻngida oʻquvchilardan avdiomatnda maʼlum qilingan hunarlardan tashqari yana qanday hunarlarni bilishlari haqida ham qoʻshimcha soʻrov oʻtkazish mumkin boʻladi. Oʻquvchilarga quyidagi soʻzlarga mos qoʻshimchalarni qoʻyib, yangi



hunar nomini yasashlari lozimligi uyga vazifa sifatida berilsa, ma'lum ma'noda bolalarning grammatik savodxonligini rivojlantirishga ham turtki bo'ladi.

Temir, shifo, ish, gilam, bino, kulol, sotuv (-chi, -kor, -do'z, -chilik)

Xullas, o'quvchilar avdiomatni eshittish orqali rivoyat bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida tinglab, o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratisa, Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU, 2022.
3. O'zbek tilining izohli lugati a [www.ziyouz.com.pdf](http://www.ziyouz.com/pdf). –B.561.
4. G.Rahimova, M.Abrayeva. O'qish darsliklaridagi matnlar uchun PIRLS topshiriqlari tayyorlash (umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun). Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2022. – 52 b.